



## NAVRO'Z BAYRAMINING KELIB CHIQISH TARIXI

**Xolmatova Zahro**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi  
fakulteti 2-kurs 206-guruh talabasi

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 28-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2023 yil

### KEY WORDS

Navro'z, zardushtiylik, urf-odat, «kichik Navro'z», «Katta Navro'z», «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», „Tarixi mulki ajam“ „Navro'znoma“, „Avesto“.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning qadimiy va an'anaviy bayrami – Navro'z ayyomining kelib chiqishi tarixi, mazmun va mohiyati, nishonlanish jarayonlari, u haqidagi yozilgan manbalar hamda Navro'z bayramiga qaratilgan e'tibor haqida mulohazalar bildirilgan*

Navro'z bayrami juda qadimiy bayram sanaladi. Tarixchilarning fikricha, bu bayramning tarixi qariyb 3 ming yildan ziyod. Navro'z asosan bahoriy tengkunlikda nishonlanadi. Navro'z - tabiat uyg'onishi ramzi, yangilanish, yasharish fasli, bu kunda qayta tiklanib, yangicha tus olgan xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, milliy an'analarimiz, turfa marosimlar o'tkaziladi. Shu tariqa milliy meroslarimiz avlodlar qalbiga singib boradi. Navro'z bayrami elimizda obodlik, tinchlik-totuvlik, millatlaro ahillik, bag'rikenglik ramzi, qalblarimizda ezgulik uyg'otuvchi haqiqiy sharqona bayram sifatida nishonlanadi.

### Adabiyotlar tahlili

“Ilohi har kuning navro'z bo'lsin

Hamisha tole'ing feruz bo'lsin.”

Bahor - fasllar gulshani, uyg'onish fasli. Butun borliq, ona tabiat barq urib yashnaydi, yangilanadi. Tirik jonzot borki yangi kunning tug'ilishidan bahra oladi, zavqlanadi. Yil fasllarining almashinishi, qahraton qishning bahorga o'rin bo'shatib berishi, qish bo'yi mudrab yotgan dalalarda taft paydo bo'lib, sepilgan urug'larning asta-sekin nish otishi tabiiy muvozanatga asoslangan. Insonning butun hayoti shu muvozanatda o'z ifodasini topadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Suv va quruqlik, kun va tun, tog'laru yalangliklar o'rtasida ilohiy bir muvozanat bor. Uning boshida yilda bir keladigan Navro'z turadi. Navro'zda bu donishmand dunyo ko'rkamlik libosiga burkanadi, tabiat uyg'onadi, tuyg'ularimizda ham uyg'onish, tiniqlashish yuz beradi, ko'chalar, hovlilar tartibga keltiriladi. Hosil dalalari yetilib ko'pchiydi. Qushlar simfoniyasi, ko'klamoyim qo'shiqlari avjiga chiqadi. Bu ayyomda bir-birimizga ancha mehribon va yaqin bo'lib qolamiz. Ezgu niyatlar qilib, bir-birimizni bag'rimizga bosamiz. Gina-kuduratlar unutiladi, qish bo'yi unniqqan xonalarning derazalari ochilib, musaffo havo vujudimizga singadi. Doshqozonda sumalak qaynaydi. Qozon atrofida tabarruk onaxonlarga qo'shilib bo'y yetgan qizlar, kelinchaklar raqsga tushadilar. Bu munavvarliklar inson qalbiga

ko'chadi, qalb bog'larida ham tozarish yuz beradi. Bu bayram barcha xalqlarning do'stlik va birlik ramziga ega bo'lgan umumxalq bayramidir.

Navro'z bayramining qachon vujudga kelgani haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan shu narsa ko'rinadiki, u O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda Ahamoniylar davrida (miloddan avvalgi VI asrlarda) keng tarqalgan.

Navro'z qachon, qanday vujudga kelganidan qat'iy nazar, u har tomonlama ilmiy asoslanib, koinot va tabiat qonuniyatlari hisobga olingan holda joriy etilgan. Chunonchi, quyoshning hamal burjiga kirishi, kunduzning uzaya boshlashi, yorug'likning kuchayishi, tabiatning jonlanishi – Navro'z deb qabul olingan (Navro'z – «yangi kun» degan ma'noni bildiradi). Navro'z eski quyosh kalendari hisobida farvordin oyining boshlanishiga (hozirgi 22 martga) to'g'ri kelgan. Bukun «kichik Navro'z» deb atalgan va bu kundan boshlab tabiatdagi hamma narsa amalga kiradi, deb hisoblangan.

Beruniy «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida qimmatli ma'lumotlar berib, unda kichik bayram farvordin oyining oltinchi kunigacha davom etganini ta'kidlagan. Demak, farvordin oyining oltinchi kuni «Katta Navro'z»ning mohiyatini bevosita tabiat bilan bog'laydi va bu haqda shunday yozadi: «...U butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, hayvonlarda nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan». Bu fikrlar Navro'zning qadimdan tabiat va bahor bayrami bo'lganini yana bir karra isbotlaydi. Biroq, tarixda Navro'zning mazmunini turlicha talqin qilib, ba'zilar uni tarakqiy ettirishga, boshqalar esa uni ta'qiqlashga harakat qilishdi. Jumladan, grek-makedon va arab istilosi davrlarida Navro'z ta'qiqlanib, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Navro'z o'tmishdagi har bir sinfiy jamiyatda podsholar hukmdorligi, diniy ideologiya ta'sirida shaklan o'zgarib tursa-da, u o'zining asosiy mohiyatini saqlab qoldi. U haqiqiy xalq bayrami bo'lib, mehnat ahli orasida katta tantanalar bilan nishonlangan.

Binobarin, qadimdan xalqda bayramni o'tkazishning o'ziga xos tartib-qoidalari bo'lgan.

Islomgacha bo'lgan Navro'zda oddiy xalqqa tegishli bo'lgan odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlar bir-biriga shakar va shirinliklar hadya qilish (hayotingiz shirin bo'lsin degan ma'noda), bir-biriga suv sepish (bu yil suv ko'p bo'lsin, hosil yaxshi bo'lsin degan ma'noda) va boshqa odatlar keng tarqalgan. Keyingi asrlarda esa hovli-joylarni tozalash, ko'kat va gullar ekish, ota-ona, yoru do'stlarni ziyorat qilish, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navro'z bayramining tarkibiy qismiga aylangan.

Navro'z – turkiy xalqlarning eng ommaviy va go'zal bayramidir. Ushbu bayramning kirib kelishi bilan ko'pgina o'zbek oilalar sumalak, xalim, ko'k somsa, palov kabi turli milliy taomlarni tayyorlaydilar. Mazkur taomlar odamzod organizmiga foydali bo'lgan vitaminlarga boydir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlar va ana'nalari kuchga kirdi, jumladan Navro'z bayramini nishonlash o'ziga xos tusga ega bo'ldi. Bu bayram barcha xalqlarning do'stlik va birlik ramziga ega bo'lgan umumxalq bayramidir.

Navro'z (Navruz) bayrami fors-tojik va turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, aynan kun va tun teng bo'lgan paytgacha mos keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko'ra, Navro'zning shakllanish davri — eng qadimgi zamonlardan „zardushtiylik“ning paydo bo'lishigacha davom etgan asrlarni o'z ichiga

olgan ekan. Navro'z so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib «Yangi kun» degan ma'noni bildiradi. Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to'xtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o'tishgan. Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko'pchilikning „Navro'z qaerda va qachon paydo bo'lgan ekan?“ — degan savoliga „Saodat“ jurnalida e'lon qilingan „Onaqutining saxovati“ maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: «Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo'lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro'z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya'ni, ayol shahri poytaxti bo'lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal'a, Jomboq qal'a va Niso qo'rg'onlarida bunyod qilingan va shu kunlargacha saqlanib qolgan „olov uy“lari yaqqol misol bo'la oladi. Burgut qal'a markazida moviy gumbazli maqbara bo'lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko'tarilgan qo'lida Zumrad tosh bo'lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo'yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo'lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o'txonasiga o't yoqqan», deyilgan.

Alisher Navoiy „Tarixi mulki ajam“ („Ajam shohlari tarixi“) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so'ngida ulug' Navro'z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: «Jamshid „Chihil minor“ nomli odamzod ko'rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib... „bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig'ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e'tiqodli rabiyyg'a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o'ltirib, adolat sayt va sadosin olamg'a muntashir qildi va ul kunining otin navro'z qo'ydi“. Darhaqiqat, Navro'zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko'rsatish qiyin bo'lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro'zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya'ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat'i nazar navro'zni uyg'onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo'lgan. Bundan tashqari, Navro'zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda — ibtidoiy odamlarning dehkanchilikka o'tganidan so'ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi. Navro'z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muxtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir.

Qadimgi Ajam o'lkalarining eng qutlug', xalqona, ko'hna bayrami Navro'z hisoblanadi. Bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklardan zardo'shtiylarning muqaddas kitobi, qadimgi Xorazm hududida yaratilgan "Avesto", Umar Xayyomning "Navro'znoma", Abu Rayhon Beruniyning "Osor-al-boqiya..." - "Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida bu bayramning kelib chiqishi, rasman joriy qilinishi haqida turli xil dalillar bayon qilingan.

"Avesto"da Navro'zning rasman bayram qilinishi mazdoparastlik dinining asoschisi Zardushtning dunyoga kelishi bilan bog'lanadi. Zardusht (eramizdan oldingi 623-554 yillar) bahor kunlaridan birida qahqaha urib tug'iladi. O'sha kuni olam nurga to'ladi, quyosh yanada

charaqlab ketadi. Butun mavjudot yal-yal yashnaydi, mevayu ziroatlar, g'allalar serhosil bo'ladi, molu qo'ylar egizak tug'ishadi, daryoyu chashmalar serob bo'ladi, quyosh nurini butun koinotdan darig' tutmaydi, mamlakat tinch, el farovon bo'ladi. Ana shu sanani – bahor oyi Farvardinning 21-kunini Axuramazda yilning birinchi kuni – Navro'z deb belgilashni buyuradi.

Afsonalarga qaraganda, Odam Ato Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro'z deb tan olingan emish.

Firdavsiyniig „Shohnoma“sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o'rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to'qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog' bunyod qiladi. Nihoyat, „ishlari gurkirab berganda meva“ bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko'tariladi. Ushbu afsonaga ko'ra xuddi shu kuni Navro'z nishonlangan. Podshoh Jamshid zamonida bashariyat qarish va o'limni bilmagan, er yuzi gul-gul yashnab, odamzot, barcha mahluqotlar ko'paygan, Tangri ular uchun ne'matlarni behisob qilgan. Kunlardan bir kun Jamshid sahroga chiqib, qamishzorlar oralab borayotsa, har bir niholdan allaqanday mo'jizaviy sharbatlar oqib turgan ekan. Qo'l uzatib, yalab ko'rsa, juda shirin ekan. O'sha kuni odamlarga bu sharbatlarni yig'ib olib, navro'ziy kunlar bir-biriga tarqatishni buyuribdi va bu shakar qamishni sun'iy usulda o'stirishni joriy qilibdi. Navro'z kunlari kishilarning bir-birlariga turli shirinliklar pishirib tarqatishi, qand-qurslar in'om etishi o'shandan qolgan ekan. Buyuk qomusiy bilim sohibi Beruniy ham "Osor-al-boqiya" kitobida Navro'z tarixini batafsil yoritgan. Olimning ta'kidlashicha, Ajam yurtlari podshohlari zamonida Navro'z olti kun bayram qilingan.

Bayramning birinchi kuni shahanshoh xalq huzuriga chiqib, otashkada maydonida tantanalarning rasman boshlanganligini e'lon qilgan. Etim-esirlar, kam ta'minlangan, muhtoj oilalarga ehsonlar tarqatilgan, umumxalq hashari – ariq-zovurlar, suv dambalari, hovuzlar, ko'chayu xiyobonlarni poklash ishlari boshlab yuborilgan. Ikkinchi kuni esa, shoh amaldor zodagonlarni to'plab, bayram bilan qutlagan, qilinadigan ishlar haqida maslahatlashib olgan. Uchinchi kun podsho zardushtiy ulamolar bilan mashvarat qurgan, to'rtinchi kuni esa saroy ahli bilan bayram tantanalarini nishonlagan. Beshinchi kuni shoh hamda vazirlar, qarindosh-urug'lar, farzandlar uchun "iyd dasturxon" yozilgan. Oltinchi kuni shoh faqat o'z xonadoni bilan bayram qilgan. Shuning uchun bu kun "Navro'zi buzurg" deb atalgan.

Mustaqillik yillarida Navro'z ayyomi umumxalq bayrami sifatida tan olindi. Keyingi yillarda ushbu bayramni mamlakatimizning barcha hududlarida keng nishonlash an'anaga aylandi. Amalga oshirilayotgan islohotlar esa ushbu bayramga yangicha ruh bag'ishlamoqda. Bu o'rinda Toshkent shaxrida "Navro'z" bog'i foydalanishga topshirilganligi alohida e'tiborga loyiq. Chunki aynan bunday bayram nishonlanadigan maskan birorta boshqa mamlakatda mavjud emas.

Navro'z bayrami – yangilanish fasli nafaqat O'zbekistonda, balki, Afg'oniston, Albaniya, Bahrayn, Eron, Hindiston, Iroq, Livan, Ozarbayjon, Pokiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Suriya, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston kabi davlatlarda ham keng nishonlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek "Navro'z o'zining o'lmas ruhi, umuminsoniy g'oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o'rin egallamoqda". Jumladan mazkur bayram 2009-yil 30-sentyabrda insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida YUNESKO tomonidan umumjahon nomoddiy madaniy

meroslar ro'yxatiga kiritildi. 2010-yilning 19-fevral kuni BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida esa 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi va barcha mamlakatlarni mazkur qadimiy bayramni dunyoda keng tarag'ib etishga chaqirdi. Qabul qilingan rezolyutsiyada Navro'z bayrami turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar va o'zaro hamjihatlikni rag'batlantirish, o'zaro birdamlik, qo'ni-qo'shnicilik munosabatlari, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bu o'rinda BMTning sakkizinchi Bosh kotibi Pan Gi Mun ham "Ishonamanki, jahon ahli bu kunni alohida qayd etadi. Zero, dunyoda turli o'zgarishlar, inqiroz va urushlar bo'lishiga qaramay, ushbu bayram an'analarini nishonlanadigan mamlakatlarda Navro'z ruhi sira yo'qolmadi", - deya mazkur bayram haqida o'z fikrini bildirib o'tganligi alohida e'tiborga loyiq.

Navro'z an'analarini qayta tiklash va asrab-avaylash o'zbek halqining madaniy-tarixiy merosiga bo'lgan chuqur hurmatni anglatadi. Shu bilan birga, bugungi avlodning ushbu qadimiy bayramning atrof-muhit bilan uyg'un holda yashashga intilishni mujassam etgan g'oyalari va qadriyatlariga sodiqligini yorqin ifoda etadi.

Shu o'rinda mazkur bayramning jamiyat hayotidagi ahamiyatini quyidagilarda ko'rish mumkin.

Birinchidan, Navro'z asrlar davomida shakllangan an'ana va qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodga yetkazishga katta hissa qo'shadi. Bu o'rinda ushbu bayram keng nishonlanadigan davlatlar tomonidan Navro'zning kelib chiqish tarixi, u bilan bog'liq bo'lgan an'ana va qadriyatlarining chuqur o'rganilishi va dunyo miqyosida keng targ'ib qilinishi insoniyatning nomoddiy madaniy merosining yana-da boyishiga olib keladi.

Ikkinchidan, umumxalq bayrami birdamlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarini kuchaytirish va insonlarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik, mehr-shafqatlilik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, yangilanish fasli turli xalqlar o'rtasidagi madaniy sohadagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish va ularni o'zaro yaqinlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Xulosa**

Xulosa qiladigan bo'lsak Navro'zda tinchlik va birdamlik, totivlik va ahil qo'shnicilik kabi ulug' qadriyatlar ilgari suriladi, uning qadimiy qadriyatlari esa madaniy marosimlarda madaniy xilma-xillik va insonparvarlik, sog'lom turmush tarzi va yashash sharoitini yangilash kabi odatlarni avlodlardan avlodga o'tib kelishiga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <http://asia-travel.uz/uzbekistan/customs-and-traditions/navruz>
2. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13826-navro-z-milliy-bayrami>
3. .meros.uz
4. uz.m.wikipedia.org
5. U.Qoraboyev, O'zbek xalq bayramlari, T, 2002